

Date: 23rd February-2026

**O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

Rafiyeva Umida Begmurodovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi 77-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta'lim vositalari, interfaol metodlar, aralash o'qitish (blended learning) hamda o'yinlashtirish texnologiyalarining o'quvchilarning fonetik, leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va til birliklaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Maqola natijalari til o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, aralash o'qitish, o'yinlashtirish, til o'qitish, kommunikativ kompetensiya.

KIRISH

XXI asrda til va adabiyot ta'limi tezkor rivojlanib borayotgan global axborot jamiyatida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. UNESCO tashkilotining 2021-yilgi hisobotiga ko'ra, samarali ta'lim metodlarini joriy etish o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini 40% ga oshiradi. An'anaviy metodlar bilan taqqoslaganda, interfaol yondashuvlar muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodiy tafakkur shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, o'zbek tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga interfaol yondashuvlarni tatbiq etish orqali ularning gap tuzish va ifoda qilish qobiliyatlari oshiriladi. Buni isbotlovchi tadqiqotlardan biri O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2023-yilda olib borilgan eksperiment bo'lib, unda interfaol metodlardan foydalangan sinflarda o'quvchilarning nutqiy faolligi 35% ga oshgani kuzatilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til va adabiyot ta'limida lingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha jahon va O'zbekiston olimlarining nazariy hamda amaliy qarashlari turlicha bo'lib, bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra ilmiy qarashlar bir-bir biridan farqlangan. Shunga ko'ra biz olimlarning fikrlarini atroflicha tahlil qilamiz. Jahon ilmiy maktab vakillari quyidagicha nazariyalarni ilgari surgan.

J.Kamins tomonidan lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda Biliteracy Theory (ikki tillilik nazariyasi) muhim ekanligini ta'kidlanadi. Unga ko'ra, o'quvchilar ikkinchi



Date: 23rd February-2026



tilni o'rganish jarayonida ona tilidagi kompetensiyalaridan foydalanishlari lozim. M.Kanale va M.Svain qarashlariga muvofiq, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqqan. Ularning fikriga ko'ra, lingvistik kompetensiya faqat grammatik bilimlar emas, balki sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi. D.Koyle, P.Hud va D.Marsh boshqalardan farqli o'laroq CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli asosida fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning samarali usuli ekanligini isbotlagan. J.Richards va T.Rodgers esa kommunikativ yondashuv asosida o'qitish metodlarining samaradorligini tahlil qilib, til o'rganishda interfaol usullarning afzalliklarini ko'rsatgan. Ular task-based learning (vazifaga asoslangan ta'lim) modeli orqali o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish mumkinligini qayd etishgan.

Respublikamiz olimlarining qarashlari esa quyidagicha:

Sh.Turdiyev fikriga ko'ra, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun interfaol metodlarni qo'llash zarur deb hisoblaydi. Unga ko'ra, "Jigsaw", "Debate", "Role-play" texnikalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

M.Qilichevga qarasak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar til o'rgatishda an'anaviy usullarga nisbatan 1,5 barobar samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotida mobil ilovalar, raqamli platformalar va VR texnologiyalari o'quvchilarning til kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

O.Jo'rayev tomonidan "Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda axborot texnologiyalarining o'rni" nomli tadqiqotida raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 27% ga oshgani ko'rsatilgan.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalarining ahamiyati yuksak bo'lib, ularning natijaviyligi empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim metodlari til kompetensiyasini oshiradi, xususan, kommunikativ yondashuv va CLIL modeli orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi ortadi. Misol uchun, 2022-yilda Toshkent shahridagi 15 ta maktabda o'tkazilgan tadqiqotda CLIL modeli asosida o'qigan o'quvchilarning o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifoda qilish ko'nikmalari 30% ga oshgani aniqlandi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi oshadi; mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi; o'qitish samaradorligi oshadi; jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi; yozma va og'zaki nutq rivojlanadi; baholash jarayoni obyektiv va samarali bo'ladi.

Interfaol metodlarning samaradorligi, jumladan, debate (munozara), role-play (rolli o'yin), brainstorming (aqliy hujum) texnikalari o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. 2023-yilda Buxoro davlat universitetida olib borilgan tadqiqotda munozara metodidan foydalangan guruhda ishtirokchilarning so'z boyligi 25% ga oshgani kuzatilgan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar an'anaviy

Date: 23rd February-2026

usullarga qaraganda o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini va bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi

IT texnologiyalarining ta'siri nisbatan yuqori bo'ladi. Quizlet, Kahoot, Duolingo kabi interaktiv platformalarning qo'llanilishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi. Masalan, 2021-yilda Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Quizlet va Kahoot platformalaridan foydalangan talabalar guruhida til o'rganish natijalari 32% ga yaxshilangani aniqlangan. Bundan natijalar ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va o'quvchilarga moslashtirilgan holda olib borishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA TAVSIYALAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalar an'anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroqdir. Misol uchun, Jigsaw (Pazl) metodi yordamida o'quvchilar mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari va simulyatsion muhitlar orqali til o'rganish amaliyotini kuchaytirish mumkin. Masalan, 2022-yilda AQSHning Stanford universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotda VR vositalari orqali til o'rgangan talabalar an'anaviy usullardan foydalanganlarga qaraganda 40% yaxshiroq natija ko'rsatgan.

Ularni dars jarayonlarida qo'llash natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi, jumladan, o'quvchilarning qiziqishi ortadi – interaktiv materiallar va o'yin elementlari yordamida ta'lim jarayoni qiziqarli bo'ladi; mustaqil o'rganish rivojlanadi – online kurslar, sun'iy intellekt va moslashtirilgan ta'lim tizimlari har kimga individual rivojlanish imkonini beradi; interfaol va samarali darslar tashkil etiladi – smart doskalar, simulyatsiyalar va elektron baholash tizimlari orqali ta'lim jarayoni yaxshilanadi; moslashuvchan ta'lim tizimi yaratiladi – har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim resurslari taklif etiladi; o'qituvchilarning ish samaradorligi oshadi – dars rejalashtirish, baholash va bilim monitoringi avtomatlashtiriladi; an'anaviy va zamonaviy ta'lim integratsiyasi ta'minlanadi – IT texnologiyalar an'anaviy ta'limni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tavsiya etiladigan yo'nalishlar

- O'qituvchilarning pedagogik faoliyati davomida zamonaviy ta'lim metodlari bo'yicha treninglar tashkil etish.
- IT texnologiyalar va raqamli resurslardan keng foydalanish.
- Lingvistik kompetensiyani oshirishga qaratilgan interfaol platformalarni rivojlantirish.

XULOSA

Til va adabiyot darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish zamonaviy metodlar va interfaol yondashuvlardan samarali foydalanishni talab etadi. Muloqotga asoslangan yondashuv, gamifikatsiya, ijodiy yozuv mashqlari, kolaborativ ta'lim va IT texnologiyalari kabi innovatsion usullar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.



Date: 23rd February-2026

Bunday metodlar orqali o'quvchilar til tuzilmalari va adabiy asarlarni chuqurroq anglash, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etish, shuningdek, real hayotiy muloqotga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va raqamli platformalar, ta'lim jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qiladi.

Kelajakda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va o'qituvchilarning malakasini oshirish zarur. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning chuqur bilimli, ijodkor va tanqidiy fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Wang, L. C., & Kirkpatrick, A. (2019). Technology in Language Education: Principles and Practices. Routledge.
4. Slavin, R. E. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. Allyn & Bacon.
5. UNESCO. (2021). Global Education Monitoring Report.
6. Shayxislamov, N. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati. Science and Education, 2020.

